



ҚМҚ 2.04.17-2019 “Турар жой ва жамоат биоларининг электр жиҳозлари” шаҳарсозлик нормалари ва қоидаларининг 3.12-бандига қўшимчалар киритиш тўғрисида

Ўзбекистон Республикаси Шаҳарсозлик кодексига асосан буюраман:

1. ҚМҚ 2.04.17-2019 “Турар жой ва жамоат биоларининг электр жиҳозлари” шаҳарсозлик нормалари ва қоидаларининг 3.12-банди қуйидаги мазмундаги хатбошилар билан тўлдирилсин:

“Ертўлаларда жойлаштирилиши режалаштирилган курук трансформаторлар ГОСТ 11677 талабларига жавоб бериши лозим.

Курук трансформаторнинг узоқ муддат ишлаши ҳамда ишончли эксплуатация қилинишини таъминлаш учун ҳарорат, юклама ва кучланиш режимларига риоя этилиши зарур. Курук трансформаторлар жойлаштириладиган хоналардаги ҳарорат -25°C (минимал) ва $+40^{\circ}\text{C}$ (максимал) даражалар оралиғида бўлиши лозим.

Курук трансформаторнинг юклама ва кучланиш режимлари амалдаги стандартлар билан белгиланади.”.

2. Мазкур буйруқ Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлиги, Уй-жой коммунал хизмат кўрсатиш вазирлиги, Энергетика вазирлиги ва Саноат хавфсизлиги давлат қўмитаси билан келишилган.

3. Мазкур буйруқ расмий эълон қилинган кундан эътиборан кучга киради.

Қурилиш вазири



Zakirov B. I.

Тошкент ш.
2022 йил 05 апрель,
54 сон



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI**

**TEXNIK JIHATDAN
TARTIBGA SOLISH
SOHASIDAGI NORMATIV
HUJJATLARNING
HUQUQIY EKSPERTIZASI
NATIJALARI BO‘YICHA
X U L O S A**

QMQ 2.04.17-2019 - son

1. Hujjatning turi:

Shaharsozlik normalari hamda qoidalari

2. Hujjatning nomi

ҚМҚ 2.04.17-2019 “Турар жой ва жамоат биноларининг электр жиҳозлари” шаҳарсозлик нормалари ва қоидаларига киритилаётган ўзгартиришлар

3. Hujjatni tasdiqlagan organ va u kiritilgan sana haqidagi ma’lumot

Mazkur buyruq O‘zbekiston Respublikasi qurilish vaziri tomonidan 2022-yil 5-aprelda 54-son bilan tasdiqlangan.

4. Hujjat bo‘yicha taklif va e’tirozlar

Mazkur hujjat texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga qo‘yiladigan talablar asosida kiritilganligi sababli taklif va e’tirozlar mavjud emas.

5. Qonunchilik texnikasi qoidalariga rioya qilinganligi

Ushbu hujjat “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonun va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 19-maydagi PF–5997-son Farmoni hamda Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni tayyorlash, huquqiy ekspertizadan o‘tkazish va hisobga olish qoidalari (ro‘yxat raqami 3344, 2021-yil 28-dekabr) (keyingi o‘rinda - Qoidalar) talablariga javob beradi va qonunchilik hujjatlariga zid emas.

6. Mas’ul ijrochi

Hukumat bayyonomasi qarorlari va idoraviy normativ hujjatlarni huquqiy ekspertizadan o‘tkazish boshqarmasi

Hujjatni huquqiy ekspertizadan o‘tkazish natijasi bo‘yicha

XULOSA:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturining 95.4-bandida shaharsozlik normalariga uy-joy va binolarni loyihalashda xavfsizlik darajasi yuqori bo‘lgan zamonaviy quruq

transformatorlardan foydalanish bo'yicha o'zgartirishlar kiritish belgilangan.

Shundan kelib chiqib, mazkur SHNQ bilan QMQ 2.04.17-2019 "Turar joy va jamoat binolarining elektr jihozlari" shaharsozlik normalari va qoidalariga quruq transformatorning uzoq muddat ishlashi hamda ishonchli ekspluatatsiya qilinishini ta'minlash uchun harorat, yuklama va kuchlanish rejimlariga rioya etilishi zarurligi hamda quruq transformatorlar joylashtiriladigan xonalardagi harorat -25°C (minimal) va $+40^{\circ}\text{C}$ (maksimal) darajalar oralig'ida bo'lishi lozimligi bilan bog'liq qo'shimchalar kiritilmoqda.

Taqdim etilgan shaharsozlik normalari va qoidalarida huquqiy normalar mavjud emas.

Ta'kidlash lozimki, mazkur texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatni huquqiy ekspertizadan o'tkazishda unda texnik ko'rinishdagi, shu jumladan hujjat mazmunining o'zgarishiga olib kelmaydigan xatoliklar mavjudligi aniqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining 2022-yil 11-apreldagi 09-06/3582-son xati hamda Qoidalarning 71-bandiga asosan hujjatda aniqlangan texnik ko'rinishdagi xatoliklar bartaraf etildi.

Yuqoridagilarga ko'ra, QMQ 2.04.17-2019 "Turar joy va jamoat binolarining elektr jihozlari" shaharsozlik normalari va qoidalarining 3.12-bandiga qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi buyruqni hisobga olish mumkin deb xulosa qilaman.

Vazir



Davletov R. K.
2022 - yil 13 - aprel